ZAMONAVIY DARSLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

M.Qo‘ziboyeva, Z.Rahmatova, M.Axunova

Maqolada rusiyzabon guruhlarda “O‘zbek tili” fani mashg‘ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarli va mazmunli tashkil qilish haqida fikr yuritilgan. Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish borasida tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘zlar**: pedagogik texnologiyalar, mantiqiy va ijodiy fikrlash, leksik ma’no, grammatik tahlil, leksik tahlil.*

В статье речь идет об организации интересных занятий по предмету «Узбекский язык» в русскоязычных группах на основе современных педагогических технологий. Авторы рекомендуют свой опыт работы по развитию устной и письменной речи студентов на основе использованных ими инновационных технологий.

***Ключевые слова**: педагогик технологиялар, логическое и творческое мышление, лексическое значение, грамматический анализ, лексический анализ*

.The article deals with the tasks of interesting organization on teaching the “Uzbek language” in a Russian groups on the base of new pedagogical technologies. The authors recommend their own experience of work in a way of development of oral and written speech of students.

***Key words**: grammatical meaning, lexical analysis, artistic and logical thinking.*

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi respublikamiz ta’lim tizimiga noan’anaviy va innovatsion usullarni joriy etish uchun keng yo‘l ochib berdi. Noan’anaviy ta’lim usullari pedagogik jarayonlar amaliyotida o‘zining ijobiy natijasini bermoqda. Rusiyzabon guruhlarda “O‘zbek tili” darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar dars sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini o‘stirish uchun xizmat qilmoqda.

Quyida talabalarning olgan bilimlarni mustahkamlash, nutq o‘stirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar va usullardan ayrimlarini tavsiya etamiz.

“Bilimdonlar” texnologiyasi. Bu texnologiyaning maqsadi o‘tilgan mavzularni mustahkamlashdan iborat.

Texnologiyani o‘tkazish tartibi:

Talabalar 3 ta kichik guruhga bo‘linadilar. Guruhlar o‘zlariga nom va shior tanlaydilar. So‘ngra guruhning har bir a’zosi o‘tilgan mavzuga oid ma’lumotni 3 soniya ichida qisqa ta’rif bilan tushuntirishi kerak bo‘ladi.

Birinchi aytilgan fikrni guruhning qolgan a’zolari takrorlamasligi kerak. Agar fikrlar takrorlansa, guruhga jarima beriladi. Ushbu musobaqa uchala guruh vakillari o‘rtasida tezlik bilan va mazmunli tashkil qilinadi. Har bir guruhda necta ma’lumot aytilgan bo‘lsa, shuncha ball qo‘lga kiritiladi. Takror yoki noto‘g‘ri fikr aytilgan taqdirda guruhlarga jarima belgilanadi. Eng ko‘p ball to‘plagan guruh bu bosqichning g‘olibi sifatida rag‘batlantiriladi.

Texnologiyaning afzalliklari :

- takrorlash orqali o‘tilgan mavzular talabalar bilimiga asoslanib mustahkamlanadi;
- o‘tilgan mavzuga oid har bir qoida va ta’rif e’tibordan chetda qolmaydi, yodda tutishga harakat qilinadi, bu esa xotirani mustahkamlashga olib keladi;
- boshqa talaba aytgan fikrni aytib qo‘ymaslik uchun talaba diqqatini jamlaydi, diqqatning barqaror bo‘lishi ta’minlanadi;
- talabalarda ko‘tarinki kayfiyat paydo bo‘lib, faolligi ortadi;
- bir dars davomida bir necha mavzular yodga olinadi, talabalarning barchasi baholanadi.

“Taqqoslash” texnologiyasi. Bu texnologiya talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi.

Texnologiyani o‘tkazish tartibi:

Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh o‘ziga xos jo‘shqin nom va shior tanlaydi. Nima uchun shunday nom va shior tanlaganliklarini guruh a’zolari chiroyli ifodalar bilan izohlaydilar. Har bir guruh o‘z nomi va shiorining tavsifini aytganidan so‘ng qarsaklar bilan rag‘batlantiriladi.

Shundan so‘ng asosiy faoliyat boshlanadi. A3 formatdagi qog‘ozda quyidagi jadval beriladi:

GAP	HUJAYRA
Gap – nutq birligi. Gap – bir butun sistema. Gap bo‘laklardan iborat: ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol. Gapning mazmuniy markazi – kesim. Nutq keyingi nutq uchun zamin bo‘ladi.	Hujayra – organizmning tuzilish birligi. Hujayra ham bir butun sistema Hujayra membrana, sitiplazma, yadrodan iborat. Hujayraning markazi – yadro. Hujayra ham ikkinchi hujayrani yuzaga keltiradi.

O‘qituvchi jadvalni shu asosda to‘ldirishni tushuntirib beradi. Shartga ko‘ra, til birliklari yoki grammatik hodisalar va boshqa fanning o‘xshash jihatlari turli chizmalar orqali qiyoslanadi. Masalan:



Belgilangan muddat tugagach, har bir guruh o‘zlariga berilgan jadval asosida ijodkorlik nuqtai nazaridan kashf qilingan chizmalarning taqdimotini o‘tkazadilar.

Bu yerda atamalarning fanlararo bog‘liqliklari grammatik va leksik jihatdan tahlil qilinadi. Masalan: *Tabiatda bir-biriga o‘xshash narsa va hodisalar ko‘p. Ularning bir-biriga o‘xshashligining asosi qismlardan iborat bir butunlik ekanligidadir. Gap ham nutq tovushi, so‘z, so‘z birikmasidan iborat bir butun sistemadir.*

Texnologiyaning afzalliklari:

- fanlararo atamalarni qiyoslash orqali har bir grammatik hodisaning mohiyatiga kirib borishga erishiladi;
- leksik ma’nolarni tahlil qilish orqali lug‘at boyligi ortadi;
- mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatiladi;
- talaba har bir hodisani qiyoslab, mushohada yuritishga va obyektiv xulosa chiqarishga o‘rganadi.

“Zanjir” texnologiyasi. Texnologining maqsadi: jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlash va umumiy qarorga kelish jarayonida mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rganish.

O‘tkazilish tartibi:

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Alohida kichik qog‘ozlarga yozilgan so‘zlar teskari tomon bilan qoyiladi. So‘zlar turli sohaga oid bo‘lib, bir-biriga bog‘lanmagan bo‘lishi kerak.



Guruh a’zolari birgalikda tanlab olingan so‘zlarni mantiqan bir-biriga bog‘lagan holda, 2-3 ta gap tuzadilar. Shartga ko‘ra, uchta so‘z bir gapda qatnashishi kerak. Tuzilgan gaplar mantiqiy va uslubiy jihatdan to‘g‘riligiga ko‘ra baholanadi. Masalan: diagnoz, ob-havo, buyrak kasalligi.

Ob-havo noqulayligida buyrak kasalligi diagnozi bilan og‘rigan bemorlar soni ortadi.

Tuzilgan gaplar yuzasidah guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Gapda qo‘llangan badiiy unsurlarga e’tibor qaratiladi, tahlil qilinadi. Mantiqan to‘g‘ri va uslubiy jihatdan mukammal hamda ko‘proq gap tuza olgan guruh g‘olib deb topiladi.

Keyingi bosqichda talabalarning og‘zaki nutqlarini o‘stirish maqsadida shu so‘z va gaplar ishtirokida kichik matnlar tizishni topshiriq qilib berish mumkin.

Texnologiyaning afzalliklari:

- talabalarni mantiqiy fikrlashga undaydi;
- ijodiy va mantiqiy tafakkurini boyitadi;
- uslubiy jihatdan mukammal gaplar tuzish ko‘nikmasi rivojlantiriladi;
- so‘zlarni o‘z ornida qo‘llay olish malakasi shakllantiriladi;
- talabalarning so‘z boyligi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, rus guruhlarida darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish talabalarning o‘zbek tiliga qiziqishlarini orttirsh bilan birga har bir darsning samaradorligi ta’minlanadi. Shuhdagina talaba har bir mashg‘ulotning faol va zukko ishtirokchisiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Azizov O. va boshq. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 2007.
2. Shodmonov E., Rafiyev A. O‘zbek tili. – T.: O‘zbekiston, 1995.

Andijon davlat tibbiyot instituti
2014-yil 17-mayda qabul qilingan
(Taqrizchi: dots. Yu.S. Skrilnikov)